

**XX ASR 60-70 YILLARIDA FARG'ONA VODIYSI QISHLOQLARI
INFRATUZILMASIDAGI O'ZGARISHLAR**

Raimjonov Ziyoxiddin Raxmonjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti tarix yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: XX asr 60-80- yillarda Farg'ona vodiysi qishloqlari qishloqlari infratuzilmasi haqida so'z ketadi

Kalit so'zlar: infratuzilma, kolxoz, maishiy xizmat, savdo, sexlar, tovar, shaxobchasi.

1960–1970-yillarda O'zbekiston qishloq hududlarida savdo xizmatlarining rivojlanishi kolxoz va sovxozlarda qurilgan savdo do'konlari va savdo muassasalarining soniga bevosita bog'liq edi. 1960- yillarda qishloqlarda savdo do'konlari qurish uchun mablag'lар yetarli bo'lmagan, shu bois, qishloq joylarda savdo do'konlari soni ehtiyoj darajasida bo'lmagan. Yana bir tomoni, do'konlar qurishda qishloqlarda aholi punktlarining sharoitlari, aholining xarid darajasi va boshqa faktorlar hisobga olinmagan. Shu sabab aksariyat do'konlar aholi ko'p bo'lган, ularga talab yuqori joylarda qurilmay, balki keraksiz joylarda qurilgan

1965-1970 yillar oraliq'ida qishloq aholisiga jami 7 milliard 420 million so'mlik mahsulotlar sotilgan. Agar buni boshqa raqamlarda ko'rsatadigan bo'lsak, 1970 yilda qishloq hududlarida savdo aylanmasi 1965 yilga qaraganda 45 foizga oshgan. Savdo aylanmasining o'sishiga joylarda qurilgan do'konlar va umumiy ovqatlanish muassasalari katta o'rinn tutgan. Masalan, mazkur davr oraliq'ida Namangan viloyatining Chust rayonida jami 46 ta yangi do'kon va 6 ta umumiy ovqatlanish joylari tashkil etilgan. Rayon markazida "Bolalar dunyosi", gastronom va restoran kabi muassasalar ochilgan bo'lsa, kolxozlarda xo'jalik va sanoat mollarini sotishga mo'ljallangan hamda oziq-ovqat do'konlari vujudga kelgan. Ushbu davrda rayonlarda turli xil do'konlarning soni 165 taga yetgan va bundan tashqari joylarda 1500 ta ko'chma do'konlar tashkil etilgan. Natijada 1969 yilda Chust rayonining savdo aylanmasi 13 million 800 ming so'mga ko'tarilgan yoki savdo aylanmasi 1964 yilga qaraganda 62 foizga o'sgan. 1976-1980 yillarda shahar aholisining jon boshiga tovar aylanmasi 24,3 foizga oshgan bo'lsa, qishloq aholisida bu ko'rsatkich 17,9 foizni tashkil qilgan. 1981-1985 yillarda tovar aylanmasi ko'rsatkichlari pasayib, shaharlarda 15 foiz, qishloqlarda 9,6 foizni tashkil qildi. 1985 yilda aholi jon boshiga savdo aylanmasi bo'yicha qishloq hududi shaharga qaraganda 2,5 barobar orqada qoldi.

Umuman, bu yillarda respublika qishloq aholisining iste'mol xaridi shaharlardagidan orqada qolayotgan edi. 1975 yilda chakana savdo aylanmasi shaharlarda aholi jon boshiga 800 so'mni, qishloqda esa 364 so'mni tashkil qilgan. Xususan, oziq-ovqat tovarlari bo'yicha shunga muvofiq 386 va 157 so'mni, undan boshqa tovarlar bo'yicha esa 414 va 189 so'mni tashkil qildi. Yana bir jihatni e'tiborga olish kerakki, mazkur davrda qishloq aholisi tovarlarning aksariyat qismini shaharlardagi do'konlardan xarid qilgan. Masalan, qishloq aholisi sanoat, maishiy texnika, kiyim-kechak kabi mollarni shahar do'konlaridan xarid qilgan va bu yalpi xarid qilingan tovarlarning taxminan 38 foizini tashkil qilgan. Qishloq aholisi oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojning katta qismini shaxsiy yordamchi xo'jaligi hisobiga qondirgan.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, vaqtiga vaqt bilan qishloq aholisi sotib olayotgan mahsulotlar turi o'zgarib turgan. Jumladan, 1950 - yillarda aholi, asosan, kundalik turmushda kerak bo'ladigan tuz, xo'jalik sovuni, gugurt, kerosin kabi mahsulotlarni ko'proq sotib olgan bo'lsa, 1960- yillarning oxirida mebel, muzlatkich, televizor, tikuv mashinasi kabi mollarga talab oshgan. Masalan, 1957 yilda qishloqlarda jami 5 mingta muzlatkich sotilgan bo'lsa, 1969 yilda qishloq aholisi 60 mingta muzlatkich xarid qilgan. Bu kabi o'sish kir yuvish mashinalari xaridida ham kuzatilgan. Jumladan, 1957 yilda qishloq aholisi jami 9 ming dona kir yuvish mashinasi sotib olgan bo'lsa, 1960-yillar oxirida ular tomonidan xarid qilingan kir yuvish mashinalari soni 45 ming donaga yetdi. Bundan tashqari, 1965-1970 yillarda qishloq hududlarida velosiped sotuvi 8 marta, mototsikl 6 marta, radio va televizorlar sotuvi 10 martaga oshgan. Shuningdek, qishloq aholisining asosiy xaridlari qatorida go'sht, kolbasa, sut mahsulotlari, hayvon yog'i, shakar va qandolat mahsulotlarining o'rni yuqoriligidicha qolgan.

So'rovnoma asosida respondentlardan "Uyingizda televizor va boshqa maishiy texnika vositalari (televizor, radiopriyomnik, muzlatkich) qachon paydo bo'lgan?" degan savolga quyidagi javob olingan. Bunda so'rovnoma o'tkazilgan 15 ta qishloqda televizor ilk bor qachon kirib kelgan, degan savol ham berilgan bo'lib, bu so'rovga respondentlarning 90 foizdan ortig'i "1965-1968 yillarda" deb javob bergan. Ya'ni, 1960-yillarning oxirlarida ham qishloqdagi 2-3 ta xonadonda televizor bo'lgan, xolos. Qishloq aholisi teleko'rsatuvlarni tomosha qilish uchun kechki paytlarda televizori bor xonadonga 20-30 nafar bo'lib chиqqanlar. So'rovnomada ishtirok etganlarning 72 foizi televizorni 1971-1979 yillarda, 26 foizi 1980-1989 yillarda sotib olganliklarini bildirdi. O'rganilayotgan davrda respondentlarning 2 foizida televizor bo'lmagan. Radio 1965-1970 yillarda qishloq aholisining 85

foizida bo'lganligi haqida ma'lumot olindi. Telefon qishloq aholisining 17 foizidagina bo'lgan, u ham asosan 1980-yillarda paydo bo'lgan. Fikr so'rالganlar 82 foizining uyida 1980- yillar oxiriga kelib ham telefon bo'Imagan. Muzlatkich ham qishloq aholisi xonadonlariga, asosan, 1980 yillardan krib kelgan va u 18 foiz aholining uyida bo'lgan, xolos. Farg'ona vodiysi qishloqlarining 80 foizdan ortiq xonadonlarida (tadqiqot olib borilgan 15 ta qishloq bo'yicha olganda) 1980-yillar oxirida ham muzlatkich bo'Imagan.

1960–1980-yillarda qishloq aholisiga bozorlar, do'konlar va umumiyligi ovqatlanish muassasalari xizmat ko'rsatgan. 1960 yilda O'zbekistonning 140 ta sovxoziда 237 ta oshxona, 330 ta bufet va choyxonalar faoliyat yuritgan. Sovxozlarda umumiyligi ovqatlanish muassasalari savdo aylanmasi 1959 yilda 1957 yilga nisbatan 2 barobarga ko'paygan. 1970-1980 yillar oraliq'ida esa qishloq joylarda umumiyligi ovqatlanish muassasalarining savdo aylanmasi olti baravarga o'sgan. Oshxonalarda ovqatlanuvchi ishchi va xizmatchilar soni oshib borgan. Dala shiyponlarida dala ishlari qizg'in paytda issiq ovqat tashkil qilingan. Matlubot kooperatsiyalari sovxozlarda umumiyligi ovqatlanish muassasalaridan tashqari nonvoxonalar, magazinlar va maishiy xizmat muassasalari ishini yo'lga qo'ygan. Ammo sovxozlardagi oshxonalar tarmog'i yetarli emas edi. Umumiyligi ovqatlanish muassasalari asosan qishloq markazlarida tashkil etilgan. Oshxonalar muzlatkichlar bilan, texnologik asbob-uskunalar va idishlar bilan yaxshi ta'minlanmagan.

Qishloq maktablarida oshxona va bufetlar faoliyati ham ko'ngildagidek yo'lga qo'yilmagan edi. Masalan, Andijon viloyatida 1960 yilda 382 ta maktablarda bufetlar bo'Imagan. Shuningdek, davolash muassasalari, bog'chalar, maktab-internatlari oziq-ovqat bilan yetarli darajada va o'z vaqtida ta'minlanmagan. Go'sht, sabzavot va boshqa mahsulotlarning komission savdosi sust darajada tashkil etilgan. Buning ustiga ularning narxi ko'p hollarda bozor narxidan ham qimmat bo'lgan. Viloyatda onalik va bolalikni himoya qilish ishlari sust yo'lga qo'yilgan. Qishloqlarda tug'uruqxonalar, bolalar bog'chalari va yasllilari yetarli bo'Imagan. Aksariyat kolxozlarda doimiy ishlaydigan bolalar bog'chalari bo'Imagan, bunday muassasalar qishloqlarda odatda kam qurilgan. Ayni paytda Andijon viloyatida kitob savdosini tashkil etish ham qoniqarsiz edi. Jumladan, 1961 yilning 8 oyida viloyat kooperativ tashkilotlari viloyat kitob savdosi omborxonasidan 205 ming so'mlik adabiyotlarni olmagan. Rayon matlubot jamiyatlari o'rta maktab o'quvchilari uchun darsliklar yo'qligi sababli viloyat kitob savdo tashkiloti tomonidan jo'natilgan kitoblarni qaytarib yuborgan

Farg'ona viloyatida qishloq o'qituvchilariga kommunal xizmat ko'rsatish uchun ajratilgan mablag'dan uzoq vaqt foydalanilmagan. 1960-1962 yillarda "O'zbekiston" rayoni qishloq o'qituvchilariga kommunal xizmat ko'rsatish uchun 142 ming so'm ajratgan bo'lsa, amalda uning 71 ming so'midan, ya'ni 50 foizidan foydalanilgan. Shuningdek, Farg'ona va Oltiariq rayonlarida ham bu mablag'lardan to'liq foydalanilmagan. Savdo tashkilotlari non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z vaqtida ta'minlanmaganligi bois, maktab oshxonalarini 10 km va undan ortiq masofadan non olib kelishga majbur bo'lган. Maktab bufetlari ham ishlamagan. O'qituvchilarni uy-joy bilan ta'minlash va ularning maishiy sharoitini yaxshilash borasida nuqsonlar ko'pligi uchun o'qituvchi kadrlar qo'nimsizligi odatiy holga aylangan. Jumladan, 1962-1964 yillarda Farg'ona viloyati qishloq maktablarida turli sabablarga ko'ra 600 nafar o'qituvchi ishdan ketgan. Bular ichida 755 nafar ishga jo'natilgan yosh mutaxassislardan 355 nafari ham bor edi. Birgina Oxunboboyev rayonida 160 nafar o'qituvchi, jumladan, 39 nafar yoshlar ishdan bo'shagan. 1964 yilda 19 ta qishloq maktabida o'qituvchi yo'qligi uchun rus tili o'qitilmagan, shuningdek, fizika va metamatika o'qituvchilari yetishmagan. 1963-1964 yillarda qishloq maktablaridan 21 ta rus tili o'qituvchisi va 18 ta fizika va metamatika o'qituvchisi o'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shagan. Quva rayonida esa 1962-1964 yillarda ishga jo'natilgan 37 nafar yosh mutaxassisidan 36 tasi ishdan bo'shab ketgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Gastronom - sovuq va yengil taomlar va alohida usulda tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi magazin
- Xasanov M. Расширять и совершенствовать торговлю на селе // Коммунист Узбекистана. –Ташкент, 1970. -№7-9. – С. 45-46.
- Baratova M , Karimova T, Muhiddinov F , Turmush darajasining yaqinlashuvi O'zbekiston qishloq xo'jaligi - Toshkent 1977. - №2. – Б. 11.
- Tajimirzayev E. XX asrning 60-80 yillarida Farg'on vodiysi qishloqlari aholisining kundalik hayoti andijon ,2020 phd
- O'zbekiston milliy arxivi P2454- fond 6- ro'yxat 2019
- Mahmudov K. El- yurt xizmatida.\\" fan va turmush- Toshkent 1970
- Abdurashidov B. Maishiy xizmat va uning istiqboli- Toshkent 1980